

## **ALISHER NAVOIYNING LAYLI VA MAJNUN DOSTONIGA BADIY TAVSIF**

**JDPI o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 202-guruh talabasi**

**Yaxshiboyev Muhammadqodir**

Alisher Navoiy turkiy gulistonning xushovoz bulbuli darajasida ulug'langan ijodkor sifatida bir qator shoh asarlar yaratdi. Ulardan "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr", "Badoyi ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" va boshqa to'plamlarni misol qilib keltirish mumkin. Lekin, "Xamsa" asari bu sanab o'tilgan devonlardan o'zining badiiy qiymati, voqea va syujetlarning o'ziga xosligi, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi, persanajlarning xilma-xilligi va eng asosiysi, ishq-muhabbat mavzusini to'la-to'kis, ortiqcha mubolag'a va qochirimlardan holi qilib yaratilganligi bilan kitibxonni o'ziga jalb qiladi.

Darhaqiqat, Xamsa har kim ham yarata olmaydigan beshta ijodiy ustundir. Bu ustunni bunyod etgan siymolar Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy hazratlari edi, xolos. Navoiy bu ijod tizginini qo'lida tutgan holda, Xamsanavis ustozlari ortidan ko'r-ko'rona ergashmadi, aksincha, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ishq mavzusini, beg'araz-samimiy muhabbatga yo'g'rilgan tuyg'ularni, qahramonlikni tarannum etuvchi shaxslarning nomini qog'ozga tushurib, go'yo o'z Xamsasiga jon baxsh etdi. Beshta dostonni o'z ichiga qamrab olgan asarlar ichida "Layli va Majnun" dostoniga e'tibor qaratamiz.

"Layli va Majnun" dostoni Xamsa (Panj ganj)ning uchinchi dostoni bo'lib, g'oyaviy mavzusi ishq haqidadir. Arab diyoridagi Qaysning tug'ilishidan boshlanadi – bu asar. Ya'ni, Chin mamlakati Xoqonining ham farzandi yo'q bo'lib, Parvardigor Farhodni in'om etgani kabi, Arab qabilasi sardori ham farzandsizlik

dog'ida azob chekardiki, Alloh ham Farhoddek bolani (Qaysni) bu oilaga ravo ko'rdi. Ilm-u donishda, aql-zakovat va jismoniy kuchda barkamol shaxs bo'lib ulg'ayardi bu o'g'lon, toki ishq deb atalmish his xayollarini band etmaguncha...

Ishq mashaqqati go'yo kunduzi yurib sahroni yalangbosh-yalangoyoq kezmoq kabi, kechasi yurib o'rmonni quolsiz kezmoq kabi mushkul ish, albatta. Shunga monand, ishqning manzili ham rohat-farog'at, unga olib borar yo'l esa, xatarlidir.

Xullas, Omir qabilasidan bo'lgan arab qizi hisoblangan Layliga Qaysning ishq tushadi va uni ko'rgan zahoti xushdan ketib qoladi. Bu holat bir necha bor takrorlangandan keyin Qaysning ota-onasi xavotirlanib, hatto, jigarbandini kishanband etishga ham majbur bo'ladilar. Qizining bu holiga guvoh bo'lgan ota esa bu holatdan g'azablanib, Laylining ko'ngliga ham quloq solmay uni Bani Asad urug'idan bo'lgan Ibni Salomga erga berishga qaror qiladi. Endi, Qaysning holatiga to'xtalsak, u ishqdan sarmast, sarmastligi tufayli abgor ko'rinishga kelib, daydilik uning kasbiga aylanadi va aqldan ham ozadi. Shundan so'ng, uni Majnun deb atay boshlaydilar.

Majnun yoriga yetishish yo'lida hech narsadan taft tortmaydigan oshiq, hayot va tabiatning turfa xil ne'matlaridan bahramand bo'lishni istamaydigan telba, ota-onasi, yor-u do'stlarining qadriga yeta olmagan notavon obraz sifatida namoyon bo'lishida ham o'ziga xos ma'no bor. Bu jumllarimni esa bir qator misollar bilan yoritishga harakat qilamiz. Majnun bu- muhabbat kuychisi. Layliga bo'lgan sevgisi esa Yaratganga bo'lgan sevgisining zohiriy ko'rinishi. Tabiat va borliqqa, kurrayi zaminga befarqlik -bu hamma narsa o'tkinchi ekanligiga qisman ishora desak yanglishmagan bo'lamiz. Majnun tarki dunyo qilganday rohat-farog'atni, yaqinlar yodini unutdi, hayvonlar bilan esa do'st tutundi. Ota-onasi

judolikka chiday olmay hayotdan ko'z yumdilar. Essiz, hajr o'ti oshiqni ne ko'ylarga solmaydi, deysiz...

Asar yakunida esa ikki oshiq qalb bu og'ir judolikka, ayrilliqqa chiday olmay ular ham dunyoni tark etadilar. Kafanga o'ralib, bir tobutga solingan holda dafn etiladilar. Biroz ta'bingizni xira qilgan va ko'zingizdan yosh qalqishiga sababchi bo'layozgan bu dostonda Navoiy nega bunday yakunni bizga ulashdi? Xulosa qilib aytadigan bo'lsak gap shundaki, doimo forsiy g'azallarida Foniyl taxallusini qo'llaydigan ijodkor dunyoning ham vaqtincha ekanligiga zimdan ishora qilmoqda. Layli va Majnun bu foniyl hayotda bir-biriga diydor ko'rishmoqqa qancha urinsalar ham, taqdirning turfa o'yini va qismatning dardli yakuni oldida ularning jism-u joni ojiz edi. So'ngra vafot etib, ruhlari nihoyat taskin topdi. Pok ruhlari va sof muhabbatlari ila barhayot dunyoga ravona bo'ldilar. Zero, haqiqiy mehr-u muhabbat mavjud bo'lgan joy Alloh Taolloning dargohidir!